



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 14.02.2025  
<https://universaljurnal.uz>



### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF

## SELLYULOZA BIRIKMALARI: BIOPOLIMERLAR TUZILISHI, XUSUSIYATLARI VA QO'LLANILISHI BO'YICHA TADQIQOTLAR TAHLILI

Umiruzoqova Muxlisa G'olib qizi., Mahmatkulova Zuhra Xolmurodovna

Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Uzbekistan

[muxlisaumiruzoqova@gmail.com](mailto:muxlisaumiruzoqova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlat jamiyatlarda ekologik sabablarga ko'ra yashil materiallarga talab ortib bormoqda, yoqilg'ilarni kamayishi va o'sib borayotgan ekologik tashvishlar. Kelajak avlodga sanoat va etkazib beruvchilardan resurslar mavjudligi sababli duch keladigan qiyinchiliklardan ko'proq xabardor bo'lishlari va barqaror va qayta tiklanadigan xom ashyolardan foydalanishlari talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, selluloza o'zining ko'pligi, biopolimer sifatida ko'p qirraliligi, turli xil shakllari va potentsial qo'llanilishi tufayli materiallar uchun muhim manba bo'lishini kutish mumkin. Ushbu maqolada so'nggi yutuqlarni qamrab olgan ishlarning qisqacha tavsifini taqdim etishga mo'ljallangan selluloza kompozitlari, turli xil selluloza manbalari, erituvchilar uchun ishlab chiqarish va qayta ishlash texnikasida, shuningdek ularning xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sellyuloza kompozitsion polimerlar, tola, paxta linti, mexanik xususiyatlar, erituvchi modda.

**Аннотация:** В настоящее время во многих развитых странах спрос на экологически чистые материалы растет по экологическим причинам, истощению запасов топлива и растущим

экологическим проблемам. Следующее поколение потребует от промышленности и поставщиков большего осознания проблем, с которыми они сталкиваются из-за доступности ресурсов, и использования экологически чистого и возобновляемого сырья. В этом контексте можно ожидать, что целлюлоза станет важным источником материалов из-за ее распространенности, универсальности как биополимера, разнообразия форм и потенциальных применений. Целью этой статьи является предоставление краткого обзора последних достижений в технологиях производства и обработки целлюлозных композитов, различных источников целлюлозы, растворителей и их свойств.

**Ключевые слова:** Целлюлозные композиционные полимеры, волокна, хлопковый ворс, механические свойства, растворитель.

**Abstract:** Nowadays, in many developed societies, there is an increasing demand for green materials due to environmental reasons, fuel depletion and growing environmental concerns. Future generations are required to be more aware of the challenges faced by industry and suppliers due to the availability of resources and to use sustainable and renewable raw materials. In this context, cellulose can be expected to be an important source for materials due to its abundance, versatility as a biopolymer, diverse forms and potential applications. This article aims to provide a brief overview of the recent advances in cellulose composites, different cellulose sources, production and processing techniques for solvents, as well as their properties.

**Keywords:** Cellulose composite polymers, fiber, cotton lint, mechanical properties, solvent.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Umiruzokova , M., & Mahmatkulova , Z. (2025). CELLULOSE COMPOUNDS: ANALYSIS OF RESEARCH ON THE STRUCTURE, PROPERTIES AND APPLICATIONS OF BIOPOLYMERS. Universal International Scientific Journal, 2(2), 60–70. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1439>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14881975>

**Google scholar:** <https://scholar.google.com/citations?user=Uj8D8K4&hl=uz>

## KIRISH

Dunyo miqyosida paxta lintidan fizik-kimyoviy xossalari yaxshilangan selluloza olish texnologiyalarini modernizatsiyalash borasida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda bir yilda ishlab

chiqariluvchi 87900 tonna paxta lintining 42% qayta ishlashga yaroqsiz bo‘lib, ulardan reaksiya qobiliyati yuqori selluloza olish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda yuqorida keltirilgan mahsulotlarga, ya'ni oldindan xossalari belgilangan polimer materiallar, sellyuloza asosidagi kompozitsion materiallar, turli xossaga ega qog'oz materiallari, qurilish materiallariga talabning o'sib borishi, ularga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi sababli, O'zbekistonda ham sellyulozaga talab yildan-yilga o'sib bormoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulot turlari va hajmini kengaytirish, mahalliy xomashyolar asosida sellyuloza va uning efirlarini olish, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, qog'oz sanoatida qo'llash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, jumladan samarali usullarni qo'llab tabiiy polimerlar asosida reaksiya qobiliyati yuqori sellyuloza olishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, atsetatsellyuloza plyonkalarining sifat ko'rsatkichlarini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini

yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3236-son «2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son «Sanoat korporatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston o'zining jug'rofiy joylashuvi tufayli cho'llar va tog'li hududlardan iborat bo'lganligi, unda o'rmon zonalari deyarli yo'qligi sababli bir yillik o'simliklardan sellyuloza manbai sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun mahalliy xomashyo asosida sellyuloza zaxiralarini izlab topish, ularni ajratib olish, xossalarni o'rganish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy bir yillik o'simliklardan sellyuloza olishning eng afzal tomoni ularni har yili tabiatning o'zi tomonidan yangilanishi, zaxirani qisqa muddatlarda yaratilishi hisoblanadi.

Respublikamizda bir yillik o'simliklar orasida paxta sanoatining ikkilamchi xomashyosi bo'lgan kalta tolalardan iborat

lint, siklonda hosil bo'lgan momiq, nostandart tolalar va boshqalar, ya'ni to'qimachilik sanoati uchun tola sifatida ishlatilmaydigan qismi sellyuloza olish uchun asosiy xomashyo hisoblanadi. Paxta lintining tarkibi 98% gacha sellyulozadan iborat bo'lib, Respublikamizda yiliga qariyb 87900 tonnaga yaqin to'planadi. Ushbu qimmatbaho homashyoning atigi bir qismi kimyo sanoatida, hamda sellyuloza va qog'oz sanoatida ishlatilib kelinmoqda.

Jahonning yetakchi olimlari tomonidan paxta sellyulozasini o'rganish

borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay uni kimyoviy faol xolatga keltirish, uni xossalari tomonidan yog'och sellyulozasi o'rnida ishlatish imkoniyatlarini ishlab chiqish borasida deyarli izlanishlar olib borilmagan. Respublikamizda yetishtiriladigan paxta linti to'g'risidagi ma'lumotlar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Quyidagi jadvallarda oxirgi yillarda Respublikamizda yetishtiriladigan paxta hosili bo'yicha paxta linti miqdori bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**1.1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda paxta hosilidan to'plangan paxta linti bo'yicha ma'lumot [2; 116 b.]**

Nav I – II	A Tip (tonna)			Nav I – II	B Tip (tonna)		
	Sinflar				Sinflar		
	Oliy	O'rta	Iflos		Oliy	O'rta	Iflos
Jami	50980			Jami	36920		
Jami	87900						

**1.2.-jadval**

**Paxta lintining O'z DSt 645:2010 bo'yicha navlari**

Tip	Nav	Sinflar bo'yicha iflos aralashmalar va butun chigitlarning massa ulushi, ko'pi bilan		
		Oliy (1)	O'rta (2)	Iflos (3)
A, B	I	4,5	6,0	8,5
	II	8,0	11,0	15,0

A – tipdagi paxta linti, asosan qog'oz, etrol va boshqalarda xomashyo sifatida ishlatiladi.

B – tipdagi kimyoviy qayta ishlash uchun ishlatiladi.


Hozirgi vaqtda paxta linti O'z DSt 645:2010 standart bo'yicha "Paxta linti"ning texnik tavsifi O'z DSt 645:2010

standart bo'yicha o'lchash usullari bilan aniqlanadi [3; 14 b.].

Sellyuloza kompozitsion polimerlarining turli xil kompozitsion

materiallar qog'oz materiallari, filtrlovchi materiallar, sun'iy tolalar, qoplamalar, lak-bo'yoq materiallar, portlovchi moddalar kabi mahsulotlar uchun asosiy xomashyo sifatida ishlatiladi. Tibbiyotda paxta

lintidan bir tomondan sirtga, ikkinchi tomoni esa silliq yuzaga ega bo'lgan jarrohlik kiyimlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. (1-rasm)da Sellyulozaning umumiy tuzulishi keltirilgan.



1-rasm. Sellyulozaning tuzulishi

**Sellyuloza birikmalari:** Paxta linti – chigitdan yog' olish uchun tuksizlantirish jihozi jin apparatidan keyin urug'lar ustida qolgan qisqa va uzun tolalar bo'lib, ular chigitdan paxta tozalash korxonalarida GOST 3818.0-72 da belgilangan texnik shartlar asosida ajratib olinadi [4; 71-76 b.]. Dastlab, urug'lardan begona jismlar va kalta paxta tolalari aralashmasi olinib, ulardan sanoat maqsadlarida foydalanilmagan. Keyinchalik bu aralashmalardan paxta linti ajratib olinib, xalq xo'jaligining ba'zi sohalarida foydalanila boshlandi. Hozirgi vaqtda paxta lintidan sellyulozani ajratib olishning bir necha usullari mavjud: fizik-kimyoviy va mexanik.

Paxta tozalash sanoati korxonalarida asosiy maqsad chigitdan tolani ajratib olish, paxta terish dastgohlariga esa yuqori mahsuldorlik, kam energiya sarfi, paxta chigitining yaxlitligini saqlash, zamonaviy ergonomika va hosil bo'lgan mahsulotning yuqori tozaligi kabi talablar qo'yilib, bu jarayonlarning hech birida paxta lintining tozaligi, uning sifatini saqlash va boshqalarga ahamiyat berilmaydi. Shuning uchun chigitdan ajratilgan paxta lintining ifloslanish darajasi turlicha bo'ladi. Paxta lintidan olingan sellyulozaning sifat ko'rsatkichlari uni qay darajada ifloslanganligiga, uni qo'shimchalardan tozalashning samarali va optimal usulini tanlashga bog'liq [5; 211 b.].

Paxta tozalash sanoatida chiqarilayotgan lintning ko'p miqdori talablarga to'liq javob bermasligi sababli uni tozalash masalasi doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa mashinada terilgan paxta navlarini jinlashda olingan chigitlarda ifloslik ko'payib ketadi. Shuningdek, paxta lintini ajratish jarayonining chigit qobig'ining lint bilan ajralishi hisobiga lintning ifloslik darajasi ortadi.

A.M. Zaripov va boshqalar tomonidan GOST 3818-72 talablariga muvofiq paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqariladigan paxta tolasining og'irligi va paxta lintining ifloslanish darajasini sellyuloza sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan bo'lib, ular sellyuloza ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha miqdordagi tozalagichlar kiritilishini tavsiya etishgan [6; 11-15 b.]. Mualliflar eng optimal usul saralash usuli ekanligini, sellyulozani yo'ldosh qo'shimchalarni massa farqi bilan olib tashlash prinsipi, ya'ni markaziy tozalash usulini tavsiya etishgan.

Akademik T.M. Mirkomilov va boshqalar tomonidan tavsiya etilgan texnologik sxemada sellyulozani yo'ldosh qo'shimchalardan tozalash uchun sentrokliner o'rnatish, ya'ni pishirishdan oldin yoki quritishdan oldin, talab etilganda, uni bir necha joyga qo'yish mumkinligi o'rganilgan [7; 48 b.]. Boshqa olimlarning izlanishlari past navli paxta sellyulozasi uchun sentrokliner tozalash, yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarga ko'ra,

qo'shimcha ishlov berishni talab qiladi – ya'ni maydalash muhimligi, silliqlash uchun tolalar, rulonlar, konusning va disk tegirmonlaridan foydalanilishi o'rganilgan.

Akademik T.M. Mirkomilov va boshqalarning ilmiy ishlarida paxta sellyulozasini ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish natijalari berilgan, sellyuloza sifati va hosildorligiga ta'sir qiluvchi omillar, ishlab chiqarish sharoitiga qarab uning tuzilishini o'zgarishi va uni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llash imkoniyati o'rganilgan [8; 49 b.].

Akademik X.U. Usmonov va boshqalar tomonidan tarkibida Sellyuloza kompozitsion polimerlari tutgan xomashyolardan sellyuloza olish usullari ko'pligi, belgilanish usullarini tasniflash uchun umumiy qabul qilingan tizim mavjud emasligi, ammo barcha mutaxassislar ishlatilgan kimyoviy moddalarning turi va xususiyatlari uchun asos bo'lishi kerak deb hisoblashgan. Shundan kelib chiqqan holda, ular sellyuloza ishlab chiqarishning barcha ma'lum usullarini to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkinligini ko'rsatib o'tishgan. Ular kislotali, ishqoriy, neytral va kombinatsiyalash usullardir [9; 83 b.].

Yuqorida keltirilgan usullardan ishqorda pishirish (natron usuli) paxta sellyulozasi texnologiyasi sohasidagi taniqli olimlarning ko'plab asarlariga va ilmiy ishlarida keltirilgan. Akademik T.M. Mirkomilovning dastlabki ishida paxta tolasidan sellyuloza olishda asosan ishqorda pishirish (natron) usuli keng

o'rganilgan: natron usuli bilan reagent sifatida natriy gidroksid eritmasi ishlatilib, ushbu usulning optimal sharoitlari keltirilgan [10; 272 b.].

Bir qator ilmiy ishlarda sellyuloza ishlab chiqarish jarayonida uning reaksiyon faolligini oshirishga, shuningdek, bu maqsadda kislorod-ishqorli va kislorod-sodali pishirishdan foydalangan holda past navli lint va siklon momiqlarni ishlatishga bag'ishlangan [11; 243 b.].

G.L.Akim va uning xodimlari paxta tolasini yaxshiroq singdirish va uning reaksiyon faolligini oshirish uchun pishirishda kislorod-sodali usulni taklif qilishgan [14; 99-104 b.].

Chet ellik olimlar tomonidan paxta tolasini doimiy ravishda pishirish texnologiyasi taklif qilinib, bu sellyuloza hosilini (95% gacha) oshirishga imkon berishi o'rganilgan. Ular dastlab paxta linti 10 daqiqa davomida 80°C haroratda ishqor bilan singdirilishi, so'ng namligi 45%-gacha bo'lgan suyuqlik pishirish moslamasiga kiritilishi, pishirish vaqtini 15-40 minut davomida olib borilishi yuqori samara berishini tavsiya etishgan [15; 33-36 b.].

#### *Kislorod-ishqorli pishirish usuli.*

O'simlik xomashyosidan sellyulozani ajratishning kislorod-ishqorli pishirish usuli V.M. Nikitin, G.L. Akim, T.M. Mirkomilov, E.T. To'rayev va R.S. Sayfutdinov tomonidan taklif etilgan [11]. Jarayon mohiyati sellyulozali xomashyoga

ishqorli muhitda molekular kislorod bilan yuqori xaroratda ishlov berishga asoslangan. Pishirish jarayonida paxta tolasini chiqindilarning asosiy qismidan tozalanadi. Lekin bunda tabiiy qo'shimchalar, ya'ni pektin moddalar, protein, yog'-mum miqdorlarining hammasi toladan chiqmaydi. Oddiy ishqorli qaynatishdan so'ng toladan 25-30% atrofida mum va pigment moddalar qoladi, bu moddalar qaynatilgan tolaga sarg'ish tus beradi. Tolani oqartirish uchun takroriy oqartirish jarayonidan o'tkaziladi.

Paxta sellyulozasi natriy gipoxlorit, xlor (II) oksid, vodorod peroksid, kislorod ishtirokida ishqorli usullarda oqartiriladi.

*Gipoxlorit tuzlari* bilan paxta sellyulozasi oqartirilganda sellyuloza tarkibidagi lignin va pigment moddalar eruvchan holatga o'tadi. Lekin usulning kamchiligi – gipoxlorit tuzlari sellyulozani parchalaydi, karbonil va karboksil guruxlar miqdorini ko'paytiradi va sellyulozani saqlashnishi davrida sarg'ayishiga olib keladi.

Xlor (II) oksidning sellyulozani oqartirish uchun qo'llanilishiga sabab, uning yuqori oqartirish xossasiga egaligi va sellyulozani oksidlay olishidir. Oqartirish

jarayoni 800S da 1 soat davomida olib boriladi. Bunda sellyuloza miqdori deyarli o'zgarmaydi [28; 665-672 b].

*Paxta sellyulozasini vodorod peroksid bilan oqartirish* 60-800S oralig'ida olib boriladi. Bu usulda sellyulozani oqartirish jarayonini ma'lum vaqtdan keyin to'xtatish kerak, aks holda tolaning oqlik darajasi kamayib ketadi.

*Kislrorod-ishqorli usulda sellyulozani oqartirish* yuqori haroratda va ishqorli muhitda olib boriladi. Bu usulda sellyulozani pishirish va oqartirish jarayonlari birga boradi. Kislrorod bilan oqartirish atrof-muhitni zararli chiqindilar hosil bo'lmaydi hamda reagentlardan foydalanish va jarayonni arzonlashtirish hamda jihozning ishlab chiqarish quvvatini oshirish mumkin [33].

**2.1.-jadval**

**Qayta ishlanmagan paxta lintining asosiy tavsiflari**

<b>№</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>O'lchov birliklari</b>	<b>Paxta</b>
1	Ligninning miqdori	%	3,24
2	Yog'-mum miqdori	%	0,80
3	Kul miqdori	%	2-3
4	Oqlik darajasi	%	yuqori
5	Ifloslik darajasi		kul rangi
6	Polimerlanish darajasi		2800-3100
7	$\alpha$ -sellyuloza miqdori	%	90-95,5
8	Namligi	g/100g	4,5-5,6

An'anaviy kompozit ishlab chiqarish uchun neftga asoslangan polimerlardan foydalanish ularning sintezidan kelib chiqadigan ifloslanish va ular bilan bog'liq axlat muammolari tufayli global ijtimoiy tashvish tug'dirdi. Shuning uchun bio-asosli kompozit materiallar tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda.

**Paxta linti:** Tajriba uchun paxta lintining B tip, II-nav tanlab olindi. O'z DSt 645:2010 standart bo'yicha "Paxta linti"ning texnik tavsifi O'z DSt 645:2010 standart bo'yicha o'lchash usullari bilan aniqlandi [3].

Qayta ishlanmagan paxta linti xomashyosining ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Biokompozitlarni ishlab chiqishning asosiy motivatsiyasi ishlab chiqarish, qo'llash va qayta ishlash nuqtai nazaridan ekologik jihatdan mos keladigan kompozitlarning yangi avlodini yaratishdir. Sellyuloza yerdagi eng keng tarqalgan biopolimer va neftga asoslangan plastik materiallarning katta miqdorini kamaytirish va almashtirish uchun eng istiqbolli bio-qayta tiklanadigan resurslardan biridir.

## XULOSALAR

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, hozirda mavjud bo'lgan selluloza ishlab chiqarish usullariga nisbatan, tavsiya etilayotgan kislorod-ishqorli usulni qo'llash orqali olingan paxta sellulozasining asosiy sifat ko'rsatkichlari polimerlanish darajasi hamda uning oqlik darajasi – 5-10% yuqori bo'lishi bilan birgalikda, jarayon oxirida ajralib chiqayotgan oqova suvlar hajmining miqdori kamligi, ya'ni ishlatiladigan toza suv va kimyoviy moddalarni 2–5 marotaba kam sarf bo'lishi, bu usulni boshqalariga qaraganda ustunligi shu bilan bir qatorda

Respublikamiz uchun juda dolzarbligidan dalolat beradi;

Yuqoridagilarga ko'ra, paxta linti sellulozasidan yuqori sifatli atsetatsellyuloza va uning mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish va rivojlantirish, kislorod-ishqorli usulda pishirish, bu sohadagi muhim ilmiy va texnologik muammolarni hal qilishda qo'l keladi. Biokompozitsion materiallar orasida katta guruh, to'liq selluloza kompozitsion polimerlarining alohida qiziqish toifasi hisoblanadi. Sellyulozaning turli manbalari va ularning kompozitsion xossalari o'rganilgan. Bundan tashqari, turli xil qayta ishlash sharoitlari va turli xil erituvchilar, shuningdek, ularning selluloza kompozitlarining ta'siri batafsil ko'rib chiqildi.

Sellyuloza kompozitsion polimerlarining yaqinda rivojlanishi akademiklar uchun ham, sanoat uchun ham yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Sellyuloza kompozitsion polimerlarining boshqa biokompozitlarga nisbatan asosiy afzalligi tuproq ko'milgan to'shak yordamida tez biologik parchalanishdir, ammo degradatsiyaning katta potentsiali mos ravishda ba'zi ilovalarda Sellyuloza

kompositsion polimerlaridan foydalanishni  
cheklaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Каримкулов К. Классификация стратегически важных товаров для таможенных целях // Монография. - Германия. - 2013. - С. 116.
2. O'zDSt 645:2010 Пахта линти. Техникавий шартлар. // - Тошкент. - 2010. – Б. 14.
3. Кайминь И.Ф., Иослович М.Я., Слим Л.И. Влияние активаторов на структурно-физическое состояние целлюлозы. Физ. физ-хим. аспекты активации целлюлозы. // Тез. докл. – Рига. – 1981. - С. 71-76.
4. “Справочник по первичной обработке хлопка” книга I, «Мехнат» - Ташкент. -1994. - С. 211.
5. Зарипов А.М., Плотникова М.В., Тишабаев У., Игамбердиев И.И., Усманов Х.У. Возможность использования засоренных сортов линта для получения высококачественной хлопковой целлюлозы. В кн.: Структура и модификация хлопковой целлюлозы. Ташкент: ФАН. – 1986. - С. 11-15.
6. Миркамилов Т.М. Высококачественная хлопковая целлюлоза из низких сортов линта // Автореф. дисс. доктора технических наук. – Рига. – 1983. - С. 48.
7. Сайфутдинов Р.С. Разработка технологии получения древесно стружечных плит и целлюлозы из целлюлозосодержащего сырья // Автореф. дисс. доктора технических наук. - Ташкент. – 1999. - С. 49.
9. Усманов Х.У., Минина В.С., Зарипова А.М. Перспективы химической переработки отходов хлопководства // - Ташкент: Наука. – 1984. - С. 83.
10. Миркамилов Т.М. Технология хлопковой целлюлозы // - Ташкент: ФАН. - 1996. - С. 272.
11. Сайфутдинов Р.С. Разработка технологии получения древесно стружечных плит и целлюлозы из целлюлозосодержащего сырья // дисс. доктора технических наук. - Ташкент. – 1999. - С. 243.
13. Ҳакимов И.Ҳ. Пахта целлюлозасининг химияси // - Тошкент: Ўқитувчи. – 1981. – Б. 253.
14. Аким Г.Л., Ермолинский В.Г., Быстрова Т.А. Основные проблемы кислородно-щелочной отбелки целлюлозы // В кн.: I Всесоюзная конференция по химии и физике целлюлозы: Тезисы докладов. - Рига: Зинантне. – 1975. - С. 99-104.
15. Shamolina I.I., Bocek A.M., Zabivalova N.M., Medvedeva D.A., Grishanov S.A. An investigation of structural changes in short flax fibres in chemical treatment // *Fibres & Textiles in Eastern Europe*. - 2003. V11. - №1.(40) P. 33-36.
18. Bocek A.M., Zabivalova N.M., Shamolina I.I., Asnis L.M., Grishanov S.A. Separation and investigation of properties of flax fibre pectin // Abstracts of "The First Central European Conference on Fibres and Special Textiles". Lodz. - Poland. - 2000. - P. 27-29.
19. Zabivalova N.M., Bocek A.M., Kalyuzhnaya L.M. Mixed cellulose ethers based on cellulose of the different origin and their physical-chemical properties // Book of Abst. of the 5-th Intern. Symposium "Molecular Mobility and Order in Polymer Systems". S. – Petersburg. - 2005. - P. 109.
20. Махкамов К.М., Ульмасова Б.Т., Арипов Х.Ш., Иоелович М.Я. Надмолекулярная структура хлопковой целлюлозы разного происхождения // ДАН РТ. - Т.39. - 1996. - №11-12. - С. 72.
22. Никитин Н.И. Химия древесины и целлюлозы // Монография. - 1972.- С.412.

24. Kenji Kamide. Cellulose and Cellulose Derivatives // Elsevier. - 2005. - P. 652.
25. Pratima Bajpai. Environmentally-Friendly Production of Pulp and Paper. // - United States. - 2010. - P. 366.
26. Liisa Viikari, R.Lantto. Biotechnology in the Pulp and Paper Industry// - United Kingdom. - 2002. - P. 344.
27. Миркамшов Ш.М. Некоторые экологические аспекты в производстве хлопковой целлюлозы // Тезисы докл. Научно-практической онф.: Эколога-экономические проблемы лесного комплекса (на примереро-Западного региона России). - Санкт-Петербург. - 1997. - С. 97.
28. Сайфутдинов Р.С. Получение целлюлозы из низкосортного линта и циклонного пуха с применением кислородно-содовой варки для химической переработки и производства бумаги. // Дисс.канд.тех. наук. Л., - 1982. - С. 134.
29. Шубаков А.А., Елькина Е.А., Федорова Э.И. Отбеливание лиственное сульфатной целлюлозы перманганатом калия // Химия растительного сырья. - 2002. - №2. - С. 29-31.
30. Гоготов А.Ф.. Нитрозолигнин в качестве стабилизатора целлюлозы при гипохлоритной отбелке // Химия растительного сырья. - 1999. - №4. - С. 9-12.
31. Лазарева Г.М., Аким Л.Е. Влияние щелочной и водной обработок хлопкового линта на качество хлопковой целлюлозы, предназначенной для химической переработки // В кн.: Труды Ленинградского технологического института целлюлозно-бумажной промышленности. М., вып. 30, изд. Лесная пром. – 1973. - С. 20-29.
32. Погосов Ю.Л., Шапошникова С.Т. Получение целлюлозы из делинта хлопковых семян // Бумажная пром. – 1982. - №7. - С.12-14.
33. Аскарлов М.А., Исмоилов И.И.. Полимерлар кимёси ва физикаси // - Тошкент: Ўзбекистон. – 2004. – Б. 412.
34. Nortoji, X., & Muxriddin, A. (2023). ORGANIK DEHQONCHILIKNI DUNYO MAMLAKATLARI VA RESPUBLIKAMIZDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 92-97.
35. Тухтабоева, Ф. М., Хашимджанова, Н. Н., Юсупов, А. Н., & Абдугалипов, М. (2016). Изменения фракций белков при воздействии стимуляторов. *European research*, (6 (17)), 10-13.